

O'SMIR SPORTCHILARDA SPORT BILAN SHUG'ULLANISH MOTIVLARINI O'RGANISH

Godirjon ARZIBAYEV

Dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smir sportchilarning sport motivatsiyasiga ta'sir yetuvchi omillarni o'rganish natijalari, shuningdek, ushbu mavzu bo'yicha fikr va mulohazalar muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** o'smir, sportchi, motiv, motivatsiya, sport faoliyati, muvaffaqiyat, komponent.*

Jahon hamjamiyatida jismoniy tarbiya va sport sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida, shaxs va uning ijtimoiy muhit bilan aloqasi, faoliyat turlari va uning inson hayotidagi o'rni, sportdagi natijalari rivojlanishini ta'minlovchi psixologik shart-sharoitlar kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Motivlar ustuvorligiga, motivlar tuzilishining o'ziga xos xususiyatlariga sportning o'ziga xos xususiyatlari, sport yutuqlari darajasi, yoshi, jinsi, sportchining sport tajribasi, shuningdek, shaxsiy fazilatlarining o'zini o'zi qadrlashi kabi sport faoliyati bilan bog'liq ustuvor masalalar hozirga qadar, psixolog mutaxassislardan tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganib kelinmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid bir qator islohotlar tufayli, yurtimiz kelajagi uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega, sog'lom e'tiqod va tafakkur qilishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022–2026-yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan "Jamiyat va davlatni yangicha isloh etish, ilm-fan sohalarini ilg'or texnologiyalar bilan yangicha boyitish, jamiyat hayotida ijtimoiy faol yoshlarning rolini yanada oshirish, zamonga yangicha nazar bilan qarashni shakllantirish" kabilar fikrlarimizning yaqqol ifodasidir [1].

Shaxs psixologik taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi turli falsafiy, diniy, psixologik, pedagogik, huquqiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan yondashuvlar qomusiy olim, mutafakkirlari Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston", Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", Yusuf xos Hojib "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarlarida shaxs o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi boshqarishi, o'zini o'zi nazorat qilishi, tarbiyalashi, baholashi kabi motivatsion

jarayonlar haqidagi g'oyalari ilgari surilgan [2-6]. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadimdan boshlab, jamiyat taraqqiyoti hamda shaxs rivojlanishida jismoniy tarbiya va sport faoliyati motivlarining o'rni muhim ekanligi e'tirof etilgan.

Zamonaviy psixologiya fanida sport faoliyatining psixologik xususiyatlarini, sportchining shaxsiyatini o'rganishda motivlar va motivatsiya muammosi ham hal qiluvchi ahamiyati, sport bilan shug'ullanish va muvaffaqiyatli jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish motivlarini tushunish, turli xil uslubiy yondashuvlar qo'llanilishi, jamoaviy va individual sport turlarining o'ziga xos xususiyatlari kabi muammolar bilan xorijiy psixolog olimlari qator izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Sharqona yakka kurashning karate-do sport turi bilan shug'ullanayotgan 800 nafardan ortiq o'smir sportchilar belgilab olindi.

Tadqiqotni amalga oshirish maqsadida quyidagi metodikalardan foydalanildi: V.I. Troppikovning "Sport bilan shug'ullanish motivlarini aniqlash" metodikasi, Y.L. Xanin, A.V. Stambulov "Sportchi-murabbiy munosabatlari aniqlash" metodikasi, B.Ф. Сопов "Motivatsion holat shkalasi" metodikasi, Y.M. Orlov "Muvaffaqiyatga erishish ehtiyojini aniqlash" metodikasi, M.Kubishkina "MAC" so'rovnomasi, A.V. Shaboltas "Sport bilan shug'ullanish motivlari" metodikasi.

Shunga ko'ra, A.V. Shaboltas tomonidan ishlab chiqilgan, sport faoliyati motivlarini o'rganish "**Sport bilan shug'ullanish motivlari**" metodikasidan foydalandik. Bu metodika sport mashg'ulotlarining asosiy motivlarni aniqlashga qaratilgan. Ma'lum fikrlarga mos keluvchi 10 ta turkum motivlarni o'z ichiga oladi.

Bu metodikani interpretatsiya qilishda yuqorida keltirgan Y.L. Xanin, A.V. Stambulovlarning "**sportchi va trener munosabatlari o'rganish**" metodikasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib respondentlarni to'rt guruhga ajratib oldik, unga ko'ra;

Gnostik komponentni yuqori baholagan sportchilarda sport bilan bilan shug'ullanish motivlarining ahamiyatli darajasi quyidagi jadval (1-jadval)da keltirilgan. Emotsional qoniqish motivi - ijtimoiy-axloqiy motiv ($r=-0,498$) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi ($r=-0,368$) teskari aloqador. Bundan tashqari jamiyatda o'z o'rnini topish motivi - kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi ($r=-0,356$) bilan ham teskari aloqadorlikda ekanligi aniqlandi. Jismoniy kamolotga erishish motivi - emotsional motiv ($r=-0,425$) va fuqaroviy vatanparvarlik

motivlari ($r=-0,433$) ham teskari aloqadorligi aniqlandi. Ijtimoiy emotsional motiv - ijtimoiy-axloqiy motiv ($r=-0,349$), sport bilish motivi ($r=-0,331$) bu yerda ham teskari aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Sport muvaffaqiyatlarga erishish motiivi - sport bilish motivi ($r=-0,344$) o'zaro teskari aloqador ekanligi aniqlandi. Umumiy tarzda gnostik komponentni yuqori baholagan sportchilarda barcha motivlar o'zaro teskari aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi.

1-jadval.

Gnostik komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi

Motivlar	Emotsional qoniqish	Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	Jismoniy kamolotga erishish motivi	Ijtimoiy - emotsional motiv	Ijtimoiy - axloqiy motiv	Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	Sport bilish motivi	Reaksiyon motivi	Kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi	Fuqaroviy vatanparvarlik motivi
emotsional qoniqish motivi	-	-,096	-,067	,306	**-,498	,071	-,227	,046	-,164	*-,368
jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	-,096	-	,264	,020	-,234	-,184	,017	-,180	*-,356	-,210
jismoniy kamolotga erishish motivi	-,067	,264	-	*-,425	-,006	-,199	,151	-,028	-,300	*-,433
ijtimoiy - emotsional motiv	,306	,020	*-,425	-	*-,349	-,074	*-,331	-,019	-,051	-,033
sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	,071	-,184	-,199	-,074	,140	-	*-,344	-,202	-,004	-,073

Izoh: *reaksiyon-tug'ma liderlik, progressivlik tushunchasi (slovar inostrannix slov - 419-bet).

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib **gnostik komponentni** yuqori baholagan sportchilarda besh faktor ajralib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin.

Ular:

birinchi faktor ikki qutbli bo'lib ijobiy qutbida emotsional qoniqish (0,810) motivi, salbiy qutbida esa ijtimoiy-axloqiy (-0,807) va fuqaroviy vatanparvarlik (-0,646) motivlari turganligini guvohi bo'lamiz;

ikkinchi faktor ham o'z navbatida ikki qutbli ko'rinishga ega ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra ijobiy qutbida ijtimoiy-emotsional motiv (0,807) ko'tarilganda, salbiy qutbida jismoniy kamolotga erishish motivi (-0,767) pasayishi kuzatildi;

uchinchi faktorni ijobiy qutbida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi (0,742), salbiy qutbida jamiyatda o'z o'rnini topish motivi (-0,828) joylashgan;

to'rtinchi faktor ham xuddi yuqoridagi faktorlar singari ikki qutbli bo'lib, uning ijobiy qutbida sport muvaffaqiyatlarga erishish motivi (0,842) va salbiy qutbida sport bilish motivi (-0,703) pasayishi aniqlandi;

beshinchi faktor faqat bir ya'ni salbiy ko'rinishga ega bo'lib unda reaksiyon motiv joylashganligi aniqlandi.

Kognitiv murakkablik darajasi = 9 faktorni tashkil etadi.

Gnostik komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlari faktorlari

Motivlar	Faktor				
	1	2	3	4	5
Emotsional qoniqish	,810				
Ijtimoiy – axloqiy motiv	-,807				
Fuqaroviy vatanparvarlik motivi	-,646				
Ijtimoiy – emotsional motiv		,807			
Jismoniy kamolotga erishish motivi		-,767			
Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi			-,828		
Kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi			,742		
Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi				,842	
Sport bilish motivi				-,703	
Reaksiyon motivi					-,952

Xulqiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda sport bilan shug'ullanish motivlarining ahamiyatli darajasi quyidagi jadval (3-jadval)da keltirilgan. Emotsional qoniqish motivi – jamiyatda o'z o'rnini topish motivi ($r=0,449$), ijtimoiy-axloqiy motiv ($r=0,403$), sport muvaffaqiyatlarga erishish motivi ($r=0,414$) va sport bilish motivlari ($r=,447$) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi. Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi – reaksiyon motiv ($r=0,419$) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi ($r=0,418$) o'rtasida aloqadorlik borligi aniqlandi. Jismoniy kamolotga erishish motivi – ijtimoiy emotsional motiv ($r=0,626$), sport bilish motiv ($r=0,428$) lari

o'rtasida o'zaro ahamiyatli aloqalar mavjud ekan. Ijtimoiy emotsional motiv – sport bilish motivi ($r=0,427$) va kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi ($r=0,455$) o'zaro aloqador ekani ma'lum bo'ldi. Ijtimoiy-axloqiy motiv – reaksiyon ($r=0,476$), kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi ($r=0,423$) o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi – kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi ($r=0,475$) bilan o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Bundan tashqari reaksiyon motiv – fuqaroviy vatanparvarlik motivi ($r=0,578$) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi.

3-jadval.**Xulqiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi**

Motivlar	emotsional qoniqish motivi	jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	jismoniy kamolotga erishish motivi	ijtimoiy – emotsional motiv	ijtimoiy – axloqiy motiv	sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	sport bilish motivi	reaksiyon motiv	kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi	fuqaroviy vatanparvarlik motivi
emotsional qoniqish motivi	-	*,449	,248	,278	*,403	*,414	*,447	,186	,113	,071
jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	*,449	-	,221	,031	,263	,102	,188	*,419	,118	*,418
jismoniy kamolotga erishish motivi	,248	,221	-	*,626	,067	,018	*,428	,085	,137	,117
ijtimoiy – emotsional motiv	,278	,031	*,626	-	,360	,128	*,427	,194	*,455	,215
ijtimoiy – axloqiy motiv	*,403	,263	,067	,360	-	,210	,205	*,476	*,423	,298
sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	*,414	,102	,018	,128	,210	-	,226	,165	*,475	,211
reaksiyon motiv	,186	*,419	,085	,194	*,476	,165	,134	-	,093	*,578

Sport ilm-fanining dolzarb muammolari

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosanib **xulqiy komponentni** yuqori baholagan sportchilarda to'rt **faktor** ajralib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin.

Ular:

birinchi faktor ikki qutbli bo'lib ijobiy qutbida fuqaroviy vatanparvarlik motivi(0,764) salbiy qutbida esa reaksiyonativ(-0,864) va jamiyatda o'z o'rnini topish motivi (-0,714) ekani aniqlandi;

ikkinchi faktor ham o'z navbatida ikki qutbli ko'rinishga ega ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra ijobiy qutbida ijtimoiy-emotsional motiv(0,739)

va sport bilish motivi(0,678) ko'tarilganda, salbiy qutbida jismoniy kamolotga erishish motivi(-0,907) pasayishi aniqlandi;

uchinchi faktorni ijobiy qutbida sport muvaffaqiyatlarga erishish motivi(0,754), salbiy qutbida emotsional qoniqish motivi (-0,828) teskari aloqadorligi aniqlandi;

to'rtinchi faktor faqat bir ya'ni ijobiy ko'rinishga ega bo'lib unga kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi(0,941) va ijtimoiy-axloqiy motivlar(0,605) kirganligi aniqlandi.

Kognitiv murakkablik darajasi = 7 faktorni tashkil etadi.

4-jadval.

Xulqiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining faktorlari

Motivlar	Faktor			
	1	2	3	4
Reaksiyonativ	-,864			
Fuqaroviy vatanparvarlik motivi	,764			
Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	-,714			
Jismoniy kamolotga erishish motivi		-,907		
Ijtimoiy – emotsional motiv		,739		
Sport bilish motivi		,678		
Emotsional qoniqish			-,828	
Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi			,754	
Kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi				,941
Ijtimoiy – axloqiy motiv				,605

Hissiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda sport bilan bilan shug'ullanish motivlarining ahamiyatli darajasi quyidagi jadval (5-jadval)da keltirilgan. Ijtimoiy emotsional motiv – sport muvaffaqiyatlarga

erishish motivi (r=0,431), sport bilish motivi (r=0,359) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi (r=0,543) o'rtasida aloqadorlik borligi aniqlandi. Ijtimoiy-axloqiy motiv – reaksiyonativ (r=0,515) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi.

5-jadval.

Hissiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi

Motivlar	emotsional qoniqish	jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	jismoniy kamolotga erishish motivi	ijtimoiy – emotsional motiv	ijtimoiy – axloqiy motiv	sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	sport bilish motivi	reaksiyonativ	kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi	fuqaroviy vatanparvarlik motivi
Ijtimoiy – emotsional motiv	,058	,093	,031	-	,078	*,431	*,359	,165	,107	*,543
Ijtimoiy – axloqiy motiv	,253	,256	,278	,078	-	,243	,014	*,515	,335	,121

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib **hissiy komponentni** yuqori baholagan sportchilarda to'rt **faktor** ajralib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin.

Ular:

birinchi faktor ikki qutbli bo'lib ijobiy qutbida fuqaroviy vatanparvarlik motivi (0,860) va sportda muvaffaqiyatlarga erishish (0,509) motivlari ko'tarilganda, salbiy qutbida ijtimoiy-emotsional motiv (0,770) va jamiyatda o'z o'rnini topish motivi (-0,465) salbiy qutbida esa reaksiyon motiv (-0,864) va ekani aniqlandi;

ikkinchi faktor ham ikki qutbli ko'rinishga ega ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra ijobiy qutbida

reaksiyon motiv (0,827) va esa ijtimoiy-axloqiy (-0,815) motivi joylashgan bo'lib ular o'rtasida o'zaro teskari aloqadorlik mavjud;

uchinchi faktorni ijobiy qutbida emotsional qoniqish motivi (-0,818) va salbiy qutbida sport bilish motivi (0,699) teskari aloqadorligi aniqlandi.

to'rtinchi faktorning ijobiy qutbida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi (0,688), salbiy qutbida jismoniy kamolotga erishish motivi (-0,858) o'rtasida teskari aloqadorlik aniqlandi.

Kognitiv murakkablik darajasi = 8 faktorni tashkil etadi.

6-jadval.

Hissiy komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining faktorlari

Motivlar	Faktor			
	1	2	3	4
Fuqaroviy vatanparvarlik motivi	,860			
Ijtimoiy emotsional motiv	-,770			
Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	,509			
Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	-,465			
Reaksiyon asoslangan iroda motivi		,827		
Ijtimoiy axloqiy motiv		-,815		
Emotsional qoniqish			-,818	
Sport bilish motivi			,699	
Jismoniy kamolotga erishish motivi				-,858
Kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi				,688

Identik komponentni yuqori baholagan sportchilarda sport bilan bilan shug'ullanish motivlarining ahamiyatli darajasi quyidagi jadval (7-jadval)da keltirilgan. Emotsional qoniqish motivi - ijtimoiy-axloqiy motiv ($r=0,559$) bilan o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi - jismoniy kamolotga erishish motivi ($r=0,531$), ijtimoiy-axloqiy motiv ($r=0,392$), sport bilish motivi ($r=0,408$) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi ($r=0,551$) o'rtasida aloqadorlik borligi aniqlandi. Jismoniy kamolotga erishish motivi - kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi ($r=0,363$) o'zaro aloqador ekani ma'lum bo'ldi. Ijtimoiy emotsional motiv - sport muvaffaqiyatlarga

erishish motivi ($r=0,364$), reaksiyon motiv ($r=0,421$) va fuqaroviy vatanparvarlik motivi ($r=0,391$) bilan o'zaro ahamiyatli aloqadorligi aniqlandi. Ijtimoiy axloqiy motiv - reaksiyon motiv ($r=0,528$) bilan o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi - reaksiyon motiv ($r=0,519$) o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Sport bilish motivi - kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi ($r=0,501$) va fuqaroviy vatanparvarlik ($r=0,411$) o'zaro aloqadorligi aniqlandi. Bundan tashqari reaksiyon motiv - fuqaroviy vatanparvarlik ($r=0,574$) motivlari o'rtasida o'zaro ahamiyatli aloqalar aniqlandi.

Identik* komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining o'zaro aloqadorlik darajasi

Motivlar	emotsional qoniqish	jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	jismoniy kamolotga erishish motivi	ijtimoiy - emotsional motiv	ijtimoiy - axloqiy motiv	sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	sport bilish motivi	reaksion motiv	kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi	fuqaroviy vatanparvarlik motivi
emotsional qoniqish motivi	-	,050	,026	,262	**559	,250	,085	,084	,211	,110
jamiyatda o'z o'rnini topish motivi	,050	-	*531	,094	*392	,030	*408	,237	,273	**551
jismoniy kamolotga erishish motivi	,026	**531	-	,147	,036	,111	,285	,095	*363	,021
ijtimoiy - emotsional motiv	,262	,094	,147	-	,124	*364	,074	*421	,166	*391
ijtimoiy - axloqiy motiv	*559	*392	,036	,124	-	,212	,179	**528	,137	,296
sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	,250	,030	,111	*364	,212	-	,316	**519	,186	,319
sport bilish motivi	,085	*408	,285	,074	,179	,316	-	,258	**501	**411
reaksion motiv	,084	,237	,095	*421	**528	**519	,258	-	,042	**574

Izoh: *identik-bir xil(словар иностранных слов-183 bet) ya'ni ikki yoki uch komponentni bir xil darajada belgilagan

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosanib **identik komponentni** yuqori baholagan sportchilarda uch **faktor** ajralib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin.

Ular: *birinchi* faktor ikki qutbli bo'lib ijobiy qutbida reaksiyon motiv (0,802) va shu bilan birga ijtimoiy-emotsional motiv (0,703), salbiy qutbida esa fuqaroviy vatanparvarlik motivi (-0,756) va sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi (0,721) o'zaro teskari aloqadorlikligi aniqlandi;

ikkinchi faktor ham ikki qutbli ko'rinishga ega ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra, ijobiy qutbida

jismoniy kamolotga erishish motivi (0,758) va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivi (0,710), salbiy qutbida va jamiyatda o'z o'rnini topish motivi (-0,772) va sport bilish motivi (-0,650) teskari aloqadorligi aniqlandi.

uchinchi faktorni ijobiy qutbida emotsional qoniqish motivi (0,884) va salbiy qutbida ijtimoiy-axloqiy (-0,790) motivi joylashgan bo'lib ular o'rtasida o'zaro teskari aloqadorlik mavjudligi aniqlandi.

Kognitiv murakkablik darajasi = 6 faktorni tashkil etadi.

Identik komponentni yuqori baholagan sportchilarda maqsadga erishish motivlarining faktorlari

Motivlar	Faktor		
	1	2	3
Reaksiyon motivi	,802		
Fuqaroviy vatanparvarlik motivi	-,756		
Sportda muvaffaqiyatlarga erishish motivi	-,721		

Ijtimoiy – emotsional motiv	,703		
Jamiyatda o'z o'rnini topish motivi		-,772	
Jismoniy kamolotga erishish motivi		,758	
Kasbiy faoliyatga tayyorlik motivi		,710	
Sport bilish motivi		-,650	
Emotsional qoniqish			,884
Ijtimoiy – axloqiy motiv			-,790

Yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarni keltirib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'smir sportchilarda sport faoliyati motivlarining psixologik xususiyatlari o'z treneriga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'lib, bu munosabatlar gnostik, hissiy, xulqiy va identik tarzda namoyon bo'ladi.

Sport bilan shug'ullanishda trenerni mutaxassis sifatida qabul qiluvchi gnostik komponenti yuqori bo'lgan sportchilarda ijtimoiy-psixologik motivi optimal ravishda namoyon bo'ladi. Ularda ongli ravishda asoslangan motivlar e'tiqodlariga tayangan bo'lib, bilish va moddiy manfaatlar sportga kelish motivlari hisoblanadi.

Trener bilan amaldagi aloqasi qanday rivojlanishiga tayangan holda munosabatga kirishuvchi xulqiy komponenti yuqori bo'lgan sportchilarda ongli ravishda asoslangan motivlar niyatlarga tayangan bo'lib, ularni sportga kelish motivlari obro'-e'tiborni oshirish, jamoaviylikka yo'nalganlikda namoyon bo'ladi.

Sport bilan shug'ullanishda trenerga bo'lgan munosabati identik tarzda namoyon bo'luvchi sportchilarda muloqot, jismoniy barkamollik, hayotga foydali ko'nikma va bilimlarni egallash, aqliy fazilatlar va xarakterni rivojlantirish, farovonlik va salomatlikni yaxshilash sportga kelish motivlari hisoblanadi.

Аннотация: В статье рассматриваются результаты исследования факторов, влияющих на спортивную мотивацию спортсменов-подростков, а также мнения и комментарии по данной теме.

Ключевые слова: подросток, спортсмен, мотив, мотивация, спортивная деятельность, успех, компонент.

Abstract: The article discusses the results of a study of factors affecting the sports motivation of adolescent athletes, as well as opinions and comments on this topic.

Keywords: teenager, athlete, motive, motivation, sports activity, success, component.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmoni.
2. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" T. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashiriyoti, 1993, 204 bet,
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari [3 jildli saylanma; tuzuvchilar: U. Karimov, H. Hikmatullayev]. 1,2,3-jildlar. Toshkent, 1993,
4. Abu Rayhon Beruniy Hindiston. /Tanlangan asarlar. 2-jild.–T.: 1963,
5. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" – "Saodatga yo'llovchi bilim". "Fan", T.,1971:
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Tanlangan asarlar. –T. : Adabiyot va san'at, 1983. – 83 b.
7. Кретти, Браينت Дж. Психология в современном спорте [Текст]: [Пер. с англ.]. – Москва: Физкультура и спорт, 1978. – 224 с.
8. Маслоу А. Мотивация и личность / А. Маслоу. СПб., – 1999. – 479 с.
9. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность / Х. Хекхаузен. – М.: Педагогика, 1986. -Т.1.- 407 с.; -Т.2.-391 с.
10. А.Ц.Пуни. Очерки психологии спорта [Текст] А.Ц. Пуни, проф. д-р пед. наук. – Москва: Физкультура и спорт, 1959. – 308 с.
11. Ю.Ю.Палайма. Текущий результат игры и соревновательная деятельность спортсмена. – "Теор. И прак. физич. культ.", 1973, № 8.

12. Пилюян Р.А., Гусаков А.П., Лопунов В.И. Юношеская и молодежная спортивная борьба резерв большого спорта. – Теория и практика физической культуры, 1980.
13. Л.И. Божович. Проблема развития мотивационной сферы ребенка //Изучение мотивации поведения детей и подростков. – М.: Педагогика, 1972.
14. Рудик П.А. Психологические аспекты спортивной деятельности / П.А.Рудик // Спортивная психология в трудах отечественных специалистов / Под ред. Волкова И. П. – СПб.: Питер, 2002. – С. 47-59.
15. В.Г. Асеев. Мотивация поведения и формирование личности / В.Г Асеев. – М.: Мысль, 1976 – 158 с.
16. А.А. Лалаян. Психологическая подготовка спортсмена / А. А. Лалаян. – Ереван: Айастан, 1985. – 166 с.
17. О.В. Дашкевич. Эмоциональная регуляция деятельности в экстремальных условиях: Автореф. дис. доктора психол. наук. М., 1985.-36с.
18. Ковалев, В. И. Мотивы поведения и деятельности/ В. И. Ковалев – М.: Наука, 1988. – 192 с.
19. Шаболтас А.В. Мотивы занятия спортом высших достижений в юношеском возрасте: Автореф. дис...канд. – СПб., 1998.
20. Аванесян Г.М. Психологические факторы совершенствования физической
21. Магомед-Эминов М. Ш. Психодиагностика мотивации. Объект и методы / М. Ш. Магомед-Эминов // Общая психодиагностика; под ред. А. А. Бодалева, В. В. Столина. – М. : МГУ, 1987.
22. Сопов В.Ф. Методические указания по исследованию мотивационного состояния / В.Ф. Сопов. Алма-Ата, 1990. – 8 с.
23. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы / Е.П. Ильин. СПб., 2002. – 512 с.
24. Родионов А.В. Психология физического воспитания и спорта: Учеб. для студ. вузов физкульт. профиля / А.В. Родионов. М., 2004. – 570 с.